

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

RAUPOVA MUHAYYO NASIROVNA

**INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMADA TRANSFORMATSIYA
HODISASI: LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQ**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Raupova Muhayyo Nasirovna

Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada transformatsiya hodisasi: linvokulturologik tadqiq.....3

Раупова Мухайё Насировна

Феномен трансформации в переводе с английского языка на узбекский: лингвокультурологический анализ25

Raupova Muhayyo Nasirovna

The Phenomenon of Transformation in Translation from English into Uzbek: Linguacultural Analysis49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of Published Works.....53

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

RAUPOVA MUHAYYO NASIROVNA

INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMADA TRANSFORMATSIYA
HODISASI: LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQ

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2286 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash web-sahifasi (www.uzswlu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim tarmog'ining (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bakiyeva Gulandom Hisomovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Siddiqova Iroda Abduzuxurovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rustamova Shahnoza Abdurahimovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___»_____ kuni soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___»_____da tarqatildi.
(2025-yil «___»_____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi.)

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo tilshunosligida tarjimashunoslik sohasining turli aspektlarini kompleks yondashuv asosida har tomonlama tadqiq etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Qolaversa, keyingi yillarda jahonning ilg'or tarjima maktablari, yetakchi markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, olim va tadqiqotchilar tomonidan matnlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishning dolzarb masalalari hamda muammolari ustida ilmiy izlanishlar olib borishga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganligini alohida e'tirof etish joiz. Bu esa, o'z navbatida, sohada axborot texnologiyalarining o'rni va mavqeining yuqori bosqichga ko'tarilganligini, ixtisoslashgan tarjimonlar tayyorlashning muhim yo'nalish va tendensiyalarining dinamik ravishda rivojlanayotganligini, tilning funksional uslublarida, jumladan, badiiy, rasmiy, ilmiy, publitsistik uslubdagi materiallar tarjimasining lisoniy va nolisoniy xususiyatlari kabi masalalar tarjimashunoslik sohasining tadqiqot obyekti sifatida qabul qilinganligini namoyon etmoqda.

Jahon tarjimashunosligida fanlarning o'zaro integratsiyasi doirasida matn lingvistikasi, chog'ishtirma tilshunoslik, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, lingvopragmatika, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlarning ko'lami kengayib bormoqda. Jumladan, ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girilgan tarjima materiallarining lingvokulturologik jihatlarini o'rganish, olamning lisoniy manzarasi va sotsiolingvistik birliklarni tarjimada aks ettirish, asliyat tilidagi lakunalarni tarjima tilida ifodalash, lisoniy va nolisoniy muammolarni bartaraf etishda tarjima transformatsiyalaridan samarali foydalanish omillarini ilmiy jihatdan tadqiq etish ehtiyoji paydo bo'lmoqda. Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishida bir qator ilmiy-nazariy tadqiqot ishlari olib borilganligiga qaramasdan, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishning lingvistik asoslari to'liq yoritilmaganligini ta'kidlash lozim.

Mamlakatimizda olimlar tomonidan ingliz, fransuz, nemis, ispan tillaridan rus tiliga, va aksincha, rus tilidan xorijiy tillarga o'girilgan tarjimalarni o'rganish bo'yicha katta tajriba orttirilgan. Biroq ingliz-o'zbek tarjima materiallarining lingvistik jihatlarini muayyan darajada yoritilgan bo'lsa-da, aksariyat tadqiqotlarda tarjima transformatsiyalari, ulardan foydalanishning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari, til sathlari bo'yicha yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishdagi roli kabi masalalar to'liq o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot ishida tarjima transformatsiyalari, ularning mohiyati, til sathlari bo'yicha tasnifi, tarjimadagi roli, ulardan samarali foydalanish orqali tarjimonning kasbiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish masalalarini keng tadqiq etish ushbu dissertatsion ishning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida ilm-fan sohasiga qaratilgan e'tibor, xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar tarjimashunoslik sohasini chuqur o'rganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda muhim ahamiyat ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 20-

apreldagi 2909-son qarori¹, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son qarori², “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori³, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son farmoni⁴, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarorlari⁵ hamda ilm-fanni rivojlantirish va xorijiy tillarni o‘qitishga yo‘naltirilgan faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tarjima muammolarini o‘rganish har doim tarjimashunos, tilshunos, adabiyotshunoslar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Jahon tarjimashunosligida tarjimaning o‘ziga xos muammolari, badiiy matndagi konnotativ ma’nolarni tarjimada qayta aks ettirish masalalari bo‘yicha J.P.Vinay, J.Darbelnet, P.Scavée, P.Intravaia, Q.Liu, X.Zhang, H.P.Krings, E.Gentzler, A.Barcelona⁶ kabi olimlar izlanishlar olib borishgan.

Tarjimaning lingvistik muammolari bilan rus olimlaridan A.V.Fedorov, Ya.I.Retsker, V.M.Beldiyan, A.M.Fiterman, T.R.Levitskaya, V.N.Komissarov,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017-йил 20-апрелдаги 2909-сон қарори. www.lex.uz.

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017-йил 11-августдаги “Таълим муассасаларида чет тилларини ўқитишнинг сифатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 610-сон қарори. www.lex.uz.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2018-йил 5-июндаги ПҚ-3775-сон қарори. www.lex.uz.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси тўғрисида”ги 2019-йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон фармони. www.lex.uz.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2021-йил 19 майдаги ПҚ-5117-сон қарори. www.lex.uz.

⁶ Vinay, J.P. and J. Darbelnet. *Stylistique comparée du français et de l’anglais*, Paris: Didier: Georgetown University Press, 1977. – 331 p.; Scavée, P. *Traité de Stylistique Comparée. Analyse Comparative de l’Italien et du Français*, – Bruxelles: Didier, 1979. – 225 p.; Liu Q, Zhang X. *Towards the Translation of Figurative Language*. Canadian Social Science. Vol.1 No.1. 2005. – 122-126 pp.; Krings H.P. *Translation Problems and Translation Strategies of Advanced German Learners of French*. In J. House, S. Blum-Kulka (Eds.), *Interlingual and intercultural communication*. Tübingen: Gunter Narr. 1986. – 263-75 pp.; Gentzler E. *Metaphor and Translation*. *Encyclopaedia of Literary Translation into English Vol. 2.* – London: Fitzroy Dearborn Publisher, 2000. – 941-945 pp.; Barcelona, A. (2002). *Clarifying and applying the notions of metaphor and metonymy within cognitive linguistics: an update*. In Dirven R. and R. Porings (Eds.), *Metaphor and Metonymy in Comparison and Contrast.* – 207-279 pp. Berlin: Mouton de Gruyter.

A.D.Shveytser, I.I.Revzina, V.Yu.Rozentsveyg, L.K.Latyshev, N.M.Garbovskiy⁷, o‘zbek olimlaridan G‘.Salomov, N.Komilov, Q.Musayev, M.Xolbekov, Sh.Safarov, K.Jo‘rayev, Ya.Egamova, M.Baqoyeva, H.Yusupova, R.Kasimova, N.Qosimova, I.To‘xtasinov, X.Samigova, G.Ergasheva, U.Yo‘ldoshev, G.Amanova, Z.Teshaboyeva, G.Odilova⁸ va boshqalar shug‘ullangan.

Keyingi yillarda yurtimizda va xorijda amalga oshirilgan tadqiqotlar asosan tarjimaning muayyan bir lingvistik sathi yoki tarjimaning ekstralingvistik xossalari hamda tarjimaning lingvokulturologik, lingvopragmatik, lingvokognitiv xususiyatlari masalalarini qamrab olgan bo‘lib, ushbu izlanishlarda tadqiqotning predmetiga doir ayrim tarjima metodi va transformatsiyalarining ahamiyati borasida bir oz so‘z yuritilgan xolos. Tarjima transformatsiyalari tarjimashunoslikning eng asosiy va fundamental hodisalari hisoblansa-da, ularning batafsil amaliy tarjima tahlillari asosida tadqiq qilishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Mana shu kabi jihatlar bilan bizning tadqiqot ishimiz yuqorida ta’kidlab o‘tilgan izlanishlardan farq qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № I-204-4-5 “Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o‘rtasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar” ilmiy loyihasining “Ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy tipologiyasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

⁷ Федоров А. В. Искусство перевода. – Л., 1930. – 236 с.; Рецкер Я. И. Теория перевода и переводческая практика. – М., 1974. – 164 с.; Бельдиян В.М. Введение в переводоведение. – Омск, 2009. – 136 с.; Фитерман А.М., Левицкая Т. Р. Пособие по переводу с английского языка на русский. – М.: Высшая школа, 1973. – 136 с.; Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. – М.: Междунар. отношения, 1980. – 167 с.; Швейцер А.Д. Перевод и лингвистика. (Газетно-информационный и военно-публицистический перевод). – М.: Воениздат, 1973. – 280 с.; Розенцвейг В.Ю. Основы общего и машинного перевода. – М.: Высшая школа, 1964. – 243 с.; Латышев Л.К. Курс перевода: Эквивалентность перевода и способы ее достижения. – М.: Международ. отношения, 1981. – 248 с.; Гарбовский Н.К. Теория перевода: Учебник. – М.: Моск. ун-та, 2004. – 544 с.

⁸ Саломов Ғ. Тил ва таржима (бадий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари). – Т.: Фан, 1966. – 385 б.; Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари (Поэзия ва таржима). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 224 б.; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005. – 352 б.; Холбеков М. Жаҳон таржимачилиги аънавалари. Рисола. – Т.: Наврўз ДУК, 2016. – 116 б.; Сафаров Ш. Таржимашunoslikning kognitiv асослари. – Т.: Наврўз, 2019. – 300 б.; Жўраев К. Таржима санъати. – Т.: Фан, 1982. – 60 б.; Эгамова Я. Асл нухадаги қахрамонлар образини бадий таржимада қайта яратиш масалалари. филол.фан.ном.дисс. – Т., 1974. – 95 б.; Бақоева М. Қ. Инглиз тилидан ўзбек тилига шеърӣ таржималарнинг айрим масалалари. –Т.: Фан, 1994. – Б. 49.; Юсупова Ҳ.Ў. Ўзбек халқ оғзаки насри намуналарининг инглизча таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши (эртақлар, латифалар мисолида). фил.фан.номз..дисс.. автореф. – Т., 2011. – 60 б.; Касимова Р. Ўзбек тўй ва мотам маросими фольклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши. филол.фан.ном....дисс. – Т., 2018. – 169 б.; Қосимова Н.Ф. Лисоний белги ассиметрияси ва унинг сўроқ гап таржимасида воқеланиши. филол.фан.ном....дисс. – Т., 2021. – 50 б.; И. Тўхтасинов. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш: Педагогика фанлари доктори диссертацияси. – Т.: 2018. – Б.134.; Самигова Х.Б. Инглиз ва ўзбек нутқ маданияти риторик аспектининг чоғиштирма тадқиқи: Филол. фан. д-ри дисс. ... автореф. – Т., 2017. – 50 б.; Эргашева Г.И. Турли тизимдаги тилларда гендерга оид терминологиянинг шаклланишида лингвистик ва экстралингвистик омиллар: Филол. фан. д-ри дисс... – Т., 2017. – 391 б.; Йўлдошев У.Р. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латифалари мисолида): Филол. фан. б.ф. д-ри. – Т., 2017. – 45 б.; Амонова Г.Т. Ижтимоий-сиёсий лексиканинг лингвокультурологик аспекти (инглиз, рус ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. б.ф. д-ри. – Т., 2018. – 169 б. Тешабоева З. «Бобурнома»нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дис... автореф. – Тошкент, 2017. – 20 б.; Одилова Г. Инглиз ва ўзбек мумтоз шеърӣ таржималарида адекватлик муаммолари: Филол. фан. номз. дисс. –Т., 2011. – 26 б.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimada transformatsiya hodisasini tadqiq qilish va ularni qo‘llashning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash, tarjimada transformatsiyalarning qo‘llanilish xususiyatlarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan materiallarni chog‘ishtirma tahlil qilish, tarjima jarayonida qo‘llanadigan transformatsiyalar bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarjimada transformatsiya hodisalarining asosiy tushunchalarini, turlarini hamda mohiyatini ilmiy-nazariy asos va konseptual yondashuv asosida tahlil qilish; tarjimaning semiosiologik va onomasiologik tamoyillari asosida ekvivalentlik, adekvatlik, muqobillik xususiyatlarini yoritish;

lingvokulturologik tahlil orqali tarjima matnining ingliz va o‘zbek tillaridagi denotativ va konnotativ ma’no va mazmunini taqqoslash hamda transformatsiyalar o‘rtasidagi “*matn*” – “*janr*” – “*funksional uslub*” triadasining bog‘liqligini o‘rganish;

tarjima jarayonida transformatsiyalarni qo‘llashning obyektiv va subyektiv jihatlarini transformatsiyaning semantik, sintaktik va pragmatik turlari orqali tahlil qilish;

fonetik, grammatik, leksik va lingvokulturologik transformatsiyalarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimada qo‘llanishi yuzasidan tahlillar olib borish;

tinish belgilarining tarjimadagi rolini o‘rganish va bu borada ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimada statistik tahlillarni olib borish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tarjimada qo‘llanilgan turli transformatsiyalar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda qo‘llaniladigan transformatsiyalarning lingvokulturologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada transformatsion, qiyosiy-chog‘ishtirma, tasniflash, kontekstual, statistik, komponent tahlil usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimada transformatsiya hodisasining lingvokulturologik tadqiqi asosida:

har ikkala tilda tarjima transformatsiyalari olib borilgan ilmiy-nazariy asos va konseptual yondashuv asnosida *lingvistik*: fonetik (transkripsiya, transliteratsiya), sintaktik (transpozitsiya, inversiya), leksik (so‘z o‘zlashtirish, kalka, ekvivalentlik) hamda *ekstralingvistik*: lingvokulturologik (madaniy, funksional ekvivalentlik), pragmatik (eksplikatsiya, iplikatsiya) jihatdan tasniflanishi aniqlangan;

tarjimaning semiosiologik va onomasiologik tamoyillaridan va ekvivalentlik, adekvatlik, muqobillik kabi turlaridan foydalanish natijasida matnning ma’no va mazmun jihatdan o‘zgarishida ingliz tilida *fe‘l, kishilik olmoshi, shaxsi noma‘lum gaplar*, o‘zbek tilida *atoqli ot, sifat, tilning tasviriy vositalarini qo‘llash* yuqori chastotaga ega ekanligi isbotlangan;

o‘zida xalqning turmush tarzi, madaniyati, dunyoqarashini aks ettirgan milliy-madaniy leksik birliklar va denotativ hamda konnotativ ma’nolarni mujassam etgan “*matn*” – “*janr*” – “*funksional uslub*” triadasining o‘zaro bog‘liqligi natijasida

tarjima jarayonida transformatsiyalarni qo‘llashning *obyektiv va subyektiv* jihatlarini inobatga olgan holda ingliz va o‘zbek tillarida *leksik, grammatik, stilistik, pragmatik tarjima transformatsiyalariga* ehtiyoj sezilarli darajada yuqoriligi isbotlangan;

ingliz tili *flektiv*, o‘zbek tili *agglyutinativ* tillar guruhiga mansubligi nuqtayi nazaridan har ikkala tilda tarjima jarayonida transformatsiyalarning faol ishtiroki – tarjimonning tilni bilishi va matn mazmunini idrok etishiga, turli tillarning qarindoshlik jihatidan uzoq-yaqinligiga, aslyat matniga xos so‘zlarning kam yoki ko‘plik darajasiga va boshqa bir qator lingvistik hamda ekstralingvistik omillarga bog‘liqligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot jarayonida tarjima transformatsiyalarining umumiy mazmuni o‘rganib chiqildi va shu asosida ularning tasnifi yaratildi. Tarjima transformatsiyalarining tarjimaning lingvistik muammolariga yechim topishidagi ahamiyatidan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

tarjima transformatsiyalari til sathiga ko‘ra fonetik, grammatik, leksik va lingvokulturologik turlarga ajratildi va ularning tarjimadagi roli ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima tahlilida ko‘rsatib berildi. Shuningdek, dissertatsiyada tinish belgilarining ahamiyati ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima tahlili orqali yoritib berildi va shu bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan ilmiy yondashuvlar, metodologik usullar, nazariy ma‘lumotlarning ishonchli manbalardan olingani, amaliy misollar til materiallariga tayanilgani, ishda zamonaviy tadqiq usullaridan foydalanilganligi, respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlari, O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalar asosida “Tarjima nazariyasi” kursiga ingliz tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilishda transformatsiyalarning lingvistik muammolarni hal etishdagi obyektiv sabablari, qo‘llanish ko‘lami, tipologik jihatdan turli sistemalarga oid tillardagi tarjima muammolarini leksik-semantik sathda hal etish yo‘llarining ko‘rsatib berilishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalaridan “Tarjima nazariyasi” fanidan hamda “Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari”, “Tarjimaning lingvistik muammolari”, “Tarjimaning leksik-semantik sathidagi transformatsiyalari”, “Lingvistik tarjimashunoslik va tarjima sharhi” kurslarini tuzishda va ular bo‘yicha ma‘ruzalar o‘qishda, “Qiyosiy tipologiya”, “Chog‘ishtirma tilshunoslik”, “Qiyosiy tilshunoslik”, “Lingvokulturologiya”, “Kognitiv lingvistika” kabi tilshunoslik yo‘nalishlaridagi tadqiqotchilar, doktorantlar hamda magistrantlar ham foydalanishlari mumkin.

Bakalavr bosqichida ishning natijalari tarjima nazariyasi fani bo‘yicha referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlari, magistratura bosqichida esa magistrlik dissertatsiyalarini yozishda foydalanish mumkin. Shuningdek, tarjimashunoslik

sohasida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan tadqiqotchilarga dissertatsiya xulosalari kelgusida bajaradigan ishlar rejasini tuzish imkonini beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, tadqiqot natijalaridan “Tarjima nazariyasi”, “Tarjimaning lingvistik muammolari”, “Qiyosiy-tipologik tilshunoslik va tarjimashunoslik”, “Tarjimaning lingvistik nazariyalari”, “Tarjimaning leksik-semantik sathidagi transformatsiyalari”, “Lingvistik tarjimashunoslik va tarjima sharhi” kabi fanlar bo'yicha amaliy va seminar mashg'ulotlar o'tkazishda, aslyatdan o'zbek tiliga tarjima qilingan matnlarni tahlil qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada transformatsiya hodisasining lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq qilish asosida:

har ikkala tilda tarjima transformatsiyalari olib borilgan ilmiy-nazariy asos va konseptual yondashuv asnosida *lingvistik*: fonetik (transkripsiya, transliteratsiya), sintaktik (transpozitsiya, inversiya), leksik (so'z o'zlashtirish, kalka, ekvivalentlik) hamda *ekstralingvistik*: lingvokulturologik (madaniy, funksional ekvivalentlik), pragmatik (eksplikatsiya, iplikatsiya) jihatdan tasniflanishiga doir ilmiy yangilik va amaliy tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining “Erudit” innovatsion loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2022-yil 8-sentyabrdagi 10/1671-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida yaratilgan lug'atda til sistemalarining uzoq-yaqinligining tarjima transformatsiyalariga ta'siri hamda transformatsiyalar sof holda kamroq, aralash holda ko'proq uchrashi tarjima munosabati bilan aloqaga kirishgan tillarning tipologik jihatlarining mukammal yoritilishiga xizmat qilgan;

tarjimaning semiosilogik va onomasiologik tamoyillaridan va ekvivalentlik, adekvatlik, muqobillik kabi turlaridan foydalanish natijasida matnning ma'no va mazmun jihatdan o'zgarishida ingliz tilida fe'l, kishilik olmoshi, shaxsi noma'lum gaplar, o'zbek tilida atoqli ot, sifat, tilning tasviriy vositalarini qo'llash yuqori chastotaga ega ekanligi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan “Dunyo dinlari” elektron dasturi va mobil ilovasini yaratish mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining 2022-yil 28-dekabrdagi 02-2612-son ma'lumotnomasi). Natijada, tarjima transformatsiyalarining lingvokulturologik xususiyatlarining aniq tahlili asosida olingan ilmiy xulosa va takliflar loyiha doirasida elektron dastur va mobil ilova yaratishda ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qilgan;

o'zida xalqning turmush tarzi, madaniyati, dunyoqarashini aks ettirgan milliy-madaniy leksik birliklar va denotativ hamda konnotativ ma'nolarni mujassam etgan “matn” – “janr” – “funksional uslub” triadasining o'zaro bog'liqligi natijasida tarjima jarayonida transformatsiyalarni qo'llashning obyektiv va subyektiv jihatlarini inobatga olgan holda ingliz va o'zbek tillarida leksik, grammatik, stilistik, pragmatik tarjima transformatsiyalariga ehtiyoj sezilarli darajada yuqoriligi kabi xulosalaridan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O'zbekiston” radiokanali DUK “Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta'lim va taraqqiyot”, “Hidoyat sari” radiodasturlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi

“O‘zbekiston” teleradiokanali DUKning 2023-yil 14-martdagi 04-36-404 son ma’lumotnomasi). Natijada, ommaviy auditoriyaning tarjima turlari, transformatsiyalari haqidagi bilimlarining oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 7 ta ilmiy-amaliy konferensiya, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 7 ta ilmiy tezis va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 114 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining **“Tarjimada transformatsiyalarining o‘rni va ahamiyati: ilmiy-nazariy asos va konseptual yondashuv”** deb nomlangan birinchi bobida tarjima tushunchasi va uning turlari, tarjimon kompetensiyasining mazmun-mohiyati, tarjima transformatsiyalarini tarjimaning asosi va eng muhim jihati sifatida o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan.

Tarjima nazariyasi mustaqil ilmiy fan sifatida o‘z metod, usul, qonun va qoidalariga ega bo‘lgan filologik fanlar sirasiga kiruvchi soha hisoblanadi.

Tarjima – bir tildagi matnni boshqa bir xorijiy tilga asliyat tilining fonetik, grammatik, leksik, stilistik xususiyatlarini e’tiborga holda matnni qayta yaratish jarayoni bo‘lib, bunda mutaxassisdan o‘ziga xos tarjimonlik kompetensiyasini talab etadi.

Moldova universiteti professori Yelena Shapa tarjimani bir qator turga bo‘ladi va uning har biriga alohida izoh beradi. Quyida uning tarjima turlari haqida bildirgan fikrlarining muhim jihatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Uning ta’biricha, tarjimaning formal (*formal types of translation*) og‘zaki va yozma (*oral and written translation*), aralash (*mixed translation*), kompyuterga asoslangan/mashina tarjimalari (*computer-based/machine translation*) turlari mavjud. Tarjima asliyat matni shaklidan qat’iy nazar ketma-ket yoki sinxron tarzda og‘zaki tarjima qilinadi. Og‘zaki tarjima og‘zaki bajariladi. Yozma tarjima ham xuddi shunday matnni yozma tarjimasini nazarda tutadi.

Mashina (yordamida bajariladigan) tarjima (*machine translation (MT)*). Mazkur tarjima turida asliyati matnini kompyuter dasturi yordamida tahlil qilib, tarjima matni yaratiladi. Bunda inson omilining ishtiroki muhim, chunki qanday matn tarjima qiliniyotgani, kompyuterga tarjima uchun kiritilayotgan matnning mazmunini bilish va undan keyin tarjima matnini o‘qib chiqish uchun inson ishtiroki bo‘lishi shartligi nazarda tutiladi. Mashinada tarjima qilingan matnni mashina emas, inson tahrir qiladi.

Minyar-Beloruhev tarjimini vazifasi va maqsadiga ko‘ra uch turga bo‘ladi: adabiy tarjima (*literary translation*), informativ tarjima (*informative translation*) hamda semantik tarjima (*semantic translation*)⁹. Bundan tashqari, tarjima qiluvchilar miqdoriga qarab individual yoki yakka shaxs tomondan amalga oshirilgan tarjima (*individual translation*) hamda guruh tomonidan amalga oshirilgan tarjima (*committee translation*) turlariga bo‘linadi.

Tarjima o‘qish, yozuv, tinglab tushunish va gapirish kabi malakalar sirasiga kiradi. Shu paytgacha metodika bo‘yicha chop etilgan adabiyotlarda tarjimaga chet tilini o‘rgatishda qo‘llanadigan tor ma‘nodagi mashq turi deb qarab kelingan. Masalan, M.V.Konishevabu masala bo‘yicha muayyan fikrlar bildirgan: “Xorijiy tillarni o‘rganishda, umuman istalgan tilni o‘rganishda, tarjima tor ma‘noda emas, balki keng ma‘noda tushunilishi lozim. Tarjima yozma yoki og‘zaki bo‘lishiga qarab bir nechta kichik malakalarni o‘z ichiga oladi”¹⁰.

Tadqiqotimizda malaka terminini o‘rniga kompetensiya terminini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb hisoblaymiz. Kompetensiyadan tashqari soha bo‘yicha adabiyotlarda “tarjima san‘ati” (G‘.Salomov), “tarjima mahorati” (N.Komilov), “tarjima malakasi” kabi terminlar qo‘llanadi. Chunki umumiy tarjimada ham og‘zaki, ham yozma tarjima kompetensiyalariga e‘tibor beriladi. Bunda tarjima kompetensiyasi keng ma‘noda, agar uni yozma va og‘zaki turlari haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, tarjimini tor ma‘noda tushungan bo‘lamiz.

Masalan, og‘zaki tarjima kompetensiyalariga xotira va nutq bilan bog‘liq so‘zni, so‘z birikmasini, gapni, raqam va atoqli otlarni eslab qolish va uni xorijiy til yoki ona tili nutqida qayta yaratish malakasiga ega bo‘lishni nazarda tutadi.

Ketma-ket tarjima qilish malakalariga ega bo‘lmay turib, sinxron tarjimon malakasiga o‘tish va uni amalda bajarish mumkin emas. Og‘zaki tarjimada muhimligi jihatidan tinglab tushunish va gapirish malakasi bilan birga birinchi o‘rinda tursa, yozma tarjimada esa yozuv malakasining barcha malakaosti yoki ikkinchi darajali malaka (subskill)lari birinchi o‘rinda turadi.

Tarjima transformatsiyalari asliyati tarjimasi til birligi yordamida kommunikativ jihatdan tarjima tilida mazkur asliyati birliklarga muayyan kontekstda muntazam muqobil birliklarni qo‘llash imkoni bo‘lmaganda tarjimon tomonidan ularga teng til birliklariga o‘tish bilan bog‘liq o‘zgarishlar sifatida belgilanadi.

Tarjima nazariyasi bo‘yicha mavjud adabiyotlarning tarjima transformatsiyalarning turlari, tasnif qilish va ularni nomlashda yakdillik yo‘qligini

⁹ Миньяр-Белоручев Р.К. Теория и методы перевода. – М.: Московский лицей, 1996. – 208 с.

¹⁰Конышева М.В. Перевод как средство обучения иностранному языку//Актуальные проблемы общей теории языка, перевода, межкультурной коммуникации и методики преподавания /Сборник статей по итогам третьей международной научной Интернет- конференции/РЭУ 20-25 марта 2016 года. С. 149-152.

ko'rsatadi. V.N.Komissarov tarjima transformatsiyalarini "tarjima texnikasi"¹¹, V.S.Slepovich "tarjimaning leksik va grammatik masalalari", "tarjimada leksik transformatsiyalar"¹², L.D.Lvovskaya "tarjimadagi o'zgartirish turlari"¹³, V.V.Alimov "leksik, grammatik, stilistik transformatsiyalar"¹⁴, V.V.Sdobnikov va O.V.Petrova "tarjima yo'llari va usullari"¹⁵ va boshqa nomlar bilan atashadi.

Tarjima jarayonida so'z o'rnini almashtirish matn strukturasi tilda birliklaridan so'z, so'z birikmasi, qo'shma yoki murakkab gaplarning bo'laklari hamda mustaqil gaplar almashtirilishi mumkin.

Almashtirish transformatsiyasi bir so'zni boshqa so'z bilan almashtirishni o'z ichiga oladi. Mazkur usul keng tarqalgan va turli ko'rinishlarga ega. Tarjima jarayonida bu transformatsiya turidan foydalanish so'zlarni, so'z shakllarini, so'z turkumlari, gap bo'laklarini o'zgartirishni nazarda tutadi.

Umumlashtirish transformatsiyasida aslyatda qo'llangan tor ma'noli so'zni tarjima tilida keng ma'noli birlik bilan almashtirish ko'zda tutiladi.

Antonimik yoki teskari tarjima bo'lishli darak gapni bo'lishsiz darak gap bilan, bo'lishli konstruksiyani bo'lishsiz konstruksiya bilan aslyat matnidagi bitta so'zni tarjima matnida qarama-qarshisi ma'noli so'z bilan almashtirishni bajaradi.

So'z qo'shish transformatsiyasida aslyat matnida formal so'z birikmasining ikki tilda farq qilishi va formal jihatdan "mos kelmasligi" antonimik tarjimadan foydalanishga sabab bo'ladi.

Kalkalash esa aslyat leksik birliklarini uning tarkibiy qismi – morfema yoki so'zning leksik muqobilini tarjima tilida berilishidir.

Tarjimonning jarayon bo'yicha muammolari paydo bo'lganda eng ko'p qo'llaydigan usuli – so'zma-so'z tarjima hisoblanadi. Bu usul so'z yoki so'z birikmasining ma'nosini tushunib olish uchun amalga oshiriladi, lekin bu usul doim ham muvaffaqiyatga olib kelavermaydi, so'zma-so'z kalkalash natijasida sun'iy birikmalar hosil bo'ladi. Bunday til birliklarini qabul qilish noqulayliklar tug'diradi. Mazkur holat tarjima amaliyotida g'alizlik nomi bilan keng tarqalgan.

Tarjima transformatsiyalarining turli-tuman bo'lishi tarjimada turli darajadagi o'zgarishlarni amalga oshirishga to'g'ri kelishidan dalolat beradi. Tarjima transformatsiyalarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarning aksariyatida muayyan tarjima transformatsiyasining alohida yoki sof holda kelishi kam uchrashini, aksincha, tarjima jarayonida turli transformatsiyalarning aralash holda kelishi ko'rsatib o'tiladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **"Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada transformatsiyalardan foydalanishning lingvistik va ekstralingvistik omillari"** deb nomlanib, ushbu bobda tarjimada transformatsiyalardan foydalanishning lingvistik va ekstralingvistik omillari borasida so'z yuritiladi.

¹¹ Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высш. школа, 1990. – 253 с.

¹² Сlepovich В.С. Курс перевода (английский ↔ русский язык) = Translation Course (English ↔ Russian): учебник для студентов высших учебных заведений по специальности «Мировая экономика». – 8-е изд., испр. и доп. – Минск: ТетраСистемс, 2009. – 320 с.

¹³ Львовская З.Д. Теоретические проблемы перевода. – М., 1985. – 232 с.

¹⁴ Алимов В.В. Теория перевода. Перевод в сфере профессиональной коммуникации: - М.: Едиториал УРСС, 2005. – 160 с.

¹⁵ Петрова О.В. Введение в теорию и практику перевода. На материале английского языка. – Учеб. пособие. - М.: АСТ; Восток – Запад, 2007. – 96 с.

Hozirgi tilshunoslikda qo‘llanadigan til sistemasi tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Til sistemasi o‘z tarkibida turli darajadagi birliklarni birlashtiradi va ular jumlasiga fonema, morfema, leksema (so‘z), so‘z birikmasi, gapni kiritish mumkin.

Ma‘lumki, tilda asosiy to‘rtta qatlam bo‘lib, ular bir-birlari bilan bevosita bog‘langan. Fonetika, morfologiya, leksikologiya va sintaksis hamda bu qatlamlarning birliklari – fonema, morfema, so‘z (leksema), gaplar tilning tarkibiy qismini tashkil qilishadi. Sistemalar o‘rtasidagi farqlar quyidagilardan iborat bo‘lish mumkin:

- 1) tillarning birida boshqa tilga xos bo‘lgan kategoriyaning mavjud bo‘lmasligi;
- 2) ayni bir kategoriya doirasida bo‘linishning turlicha bo‘lishi;
- 3) qiyoslanayotgan lingvistik kategoriyalar ma‘no hajmi jihatidan to‘liq mos kelmasligi.

Ingliz tili Hind-yevropa tillari oilasi german tillari guruhiga mansub, uning grammatikasi Oltoy tillar oilasi turkiy tillar guruhi bo‘lgan o‘zbek tili grammatikasidan bir qator jihatlari bilan farqlanadi. Ularga so‘z turkumlari, so‘z tartibi, grammatik shakllarning yasalishi, morfologiyasi va sintaksisi shular jumlasidandir. Ifoda shaklidan qat‘iy nazar muayyan ma‘no stilistikaning ba‘zi normalariga roiya qilgan holda boshqa tilda to‘liq berilishi mumkin. Matn mazmunining bir tildan boshqa tilga bunday uslubda berilishiga monelik qilmaydigan jarayonni tarjima deb hisoblash mumkin.

Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan quyidagi gapda ikki tilning til sistemasida, aniqrog‘i grammatikasidagi farqlarni tahlil qilish mumkin. Masalan: *Although in the past few years profits have been dented by the knock-on effects of the Asia crisis and the tripling of oil prices, they remain substantial.* – *Osiyo krizisi so‘nggi bir necha yilda neft narxining uch barobar o‘shishiga olib kelib, aviakompaniya daromadiga sezilarli zarba bergan bo‘lsa ham bu foyda avvalgidek salmoqlidir.*

Mazkur gapni grammatik jihatdan tahlil qilsak quyidagilarga e‘tibor berishimiz lozim bo‘ladi. Ikki tildagi gap strukturasi bir-biridan farq qiladi. Ayni mana shu farq leksik hamda grammatik tarjima transformatsiyalarini amalga oshirishni taqozo etadi. Bu gapda *knock on* oti *effects* otining aniqlovchisi vazifasida kelgan. Shu birikmaning o‘zini “*zarbaning ta’siri*” deb tarjima qilish mumkin edi, chunki bu yerda qo‘llangan leksik-semantik transformatsiyaning talab etilishi asliyat tili va tarjima tili leksik sistemalardagi farq bilan izohlanadi. Tarjima matnidagi gapning kesimini o‘zgartirish va unga bog‘liq bo‘lgan boshqa o‘zgarishlar bu yerda modulyatsiya, ya‘ni ma‘noni rivojlantirish usuli qo‘llash ma‘qulligini ko‘rsatadi va u “sezilarli zarba” tarzida berilgan. Bundan tashqari, so‘z birikmalarini tarjima qilishda ham turli transformatsiyalardan foydalanish talab etiladi. Bunga sabab otlarning yonma-yon kelishi kontekstual nomutanosiblikka olib kelgan. *Masalan:*

consumer dissatisfaction – iste‘molchilarning qoniqish hosil qilmasligi (iste‘molchining qoniqmasligi emas);

consumer pressure – iste‘molchilar bosimi (iste‘molchi bosimi emas);

economy passengers – *ekonom klass yo‘lovchilari (iqtisod yoki iqtisodchi yo‘lovchilar emas)* va h.k.

Yuqoridagi misollarda soʻz oʻrinlarini almashtirish va soʻz qoʻshish usullari bilan bogʻliq transformatsiyalar qoʻllangan.

Tarjima transformatsiyalarini qoʻllash lingvistik omillar bilan izohlanadi:

I. AT va TT til normalarining farqlanishi. Masalan: *The sea was at its bluest.* – *Daryo oʻzining eng koʻk holatida edi.* Bu yerda gapni shu tarzda aytish mumkin, biroq bu gap quloqqa erish tuyuladi, chunki bu yerda til normasi buzilgan. Gapning toʻgʻri tarjimasida – *Daryo koʻm-koʻk edi.* Koʻk soʻzining orttirma darajasi – eng koʻk, biroq mazkur gap emfatik xususiyatga egaligi va til normasining talabi bilan yuqoridagi tarjima toʻgʻri variant sifatida qabul qilinishi mumkin.

II. AT va TT uzusining (nutq normalarining) bir-biriga mos kelmasligi.

Why do employees fail to follow orders? Attempts to coax, explain or lecture often fall on deaf ears but who is to blame? – Nimaga xodimlar buyruqlarni bajarishmayapti? Tushuntirish yoki pand-nasihat qilish hech taʼsir qilmaydi, kimni aylash kerak\ kim aybdor?

Yuqoridagi gapda qoʻllangan transformatsiyada tarjimon nutq vaziyati uchun tipik boʻlgan iborani ishlatishga boʻlgan harakatini kuzatish mumkin. Gapda qoʻllangan ikkita maʼnolarini yoʻqolgan, yaʼni semantizatsiyasizlashgan feʼllar: *to fail, to lecture* tarjimasida ularning maʼno jihatidan yaqin boʻlmagan variantini tanlangan. Bu degani uzusni mazkur nutq vaziyatida qoʻllanadigan iboraning chastotasi deb hisoblash mumkin. Gapda birinchi feʼl oʻzining asosiy maʼnosi hisoblangan “*muvaqqiyatsizlikka uchramoq*” ni yoʻqotib, faqat boʻlishsiz yuklama maʼnosiga ega boʻlgan. Bu yerda soʻz turkumi tarjimada oʻzgargan. Ikkinchi feʼlni oʻz maʼnosida, yaʼni “*maʼruza oʻqimoq*” deb tarjima qilish butunlay toʻgʻri kelmaydi. Biroq bu feʼlni salbiy maʼnoli feʼl “*vaʼz oʻqimoq*” deb tarjima qilsa ham boʻladi. Biroq bu yerda “*pand-nasihat oʻqimoq*” deb tarjima qilish aniqroq maʼnoga ega va konkretlashtirish usuli qoʻllanganidan dalolat beradi. Ikkinchi feʼlni “*vaʼz oʻqimoq*” tarzida tarjima qilish diniy matnda koʻproq uchraydi va bu yerda nutq vaziyati mazkur feʼlni qoʻllashni taqozo etmayapti.

III. AT va TT oʻrtasidagi toʻsiq hosil qiluvchi yana bir omil – bu etnolingvistik xususiyatga ega boʻlgan til hodisasidir.

I asked what was for his service, and he said he would take rum ... I paused where I was, with my napkins in my hand. (R.L. Stevenson, The Treasure Island) – Men undan nima beray deb soʻradim, u mendan rom soʻradi ... Men qoʻlimdagi salfetka bilan toʻxtab qoldim. (R.L.Stivenson. “Xazinalar oroli”). Keltirilgan gap tarjimasida “*to be*” feʼlining oʻtgan zamon shakli “*was*” bir abzasning oʻzida ikki xil tarjima qilinyapti. Bu yerda bitta soʻzga bitta soʻz toʻgʻri keladi degan prinsip ish bermagan. Uning oʻrniga birinchi feʼl usullaridan biri mantiqiy sinonimiya, ikkinchisida esa feʼl tushurib qoldirilgan va uning oʻrniga konkretlashtirish usuli asosida feʼlga aniqlik kiritilgan shuning uchun tarjimada boshqa feʼl qoʻllangan.

Ingliz tilidan oʻzbek tiliga amalga oshiriladigan tarjima jarayonlarida transformatsiyalardan foydalanish bu ikki tillarning turli til oilalari, turli til guruhlari, shuningdek, ushbu tillar sistemasidagi farqli jihatlar hamda ikki tildan birida boshqasida uchraymaydigan lisoniy hodisa yoki ifoda vositalarining mavjud emasligi kabi omillar bilan bogʻliq.

Ma'lumki, geografik muhit (iqlim, nabobat olami, hayvonot olami, landshaft va h.k.lar) muayyan ma'noda tegishli tillarning lug'aviy tarkibini belgilaydi. Masalan, Buyuk Britaniya orolda joylashgani, qishning juda yumshoq kelishi, doim tuman tushushi, o'rmonlaridagi yovvoyi qushlar va hayvonlar, dala gullari, turli davrlarga oid tarixiy binolarning mavjud bo'lishi, orolning atrofi okean, dengiz, mamlakat ichidagi daryolar, ko'llar, tog'larning pastligi va vodiylarning mavjudligi ingliz tili lug'at tarkibidagi so'z, so'z birikmasi, ibora va idiomalarda, maqol va matallarida o'z aksini topgan. Inglizlarda suv, orol va o'rmon bo'lgani uchun (kema, qayiq, dengiz, daryo, ko'l va undagi baliqlar nomi; o'rmondagi rezavorlar, qo'ziqorinlar nomi) o'zbek tiliga nisbatan shu mavzuga tegishli so'zlar ko'p uchraydi. Yuqorida aytilgan fikrlarni isbotlash uchun quyidagi bir qator misollarni keltirish mumkin:

to grin like a Chyeshire cat (so'zma-so'z tarjimasi: Cheshir mushugidek tirjaymoq, tirjayib kulmoq; ekvivalenti: kuydirgan kalladek kulmoq);

he will not set the Thames on fire (so'zma-so'z tarjimasi: u Temza daryosiga o't qo'ymaydi, u Temza daryosini o't oldirmaydi; ekvivalenti: *yulduzni benarvon urmoq*);

Queen Anne is dead! (so'zma-so'z tarjimasi: Qirolicha Anna o'ldi!; ekvivalenti: *Amerikani kashf qilyapsanmi?, hech qanday yangi gap aytmading*);

to carry coal to Newcastle (so'zma-so'z tarjimasi: Nyukaslga (Angliyaning ko'mir qazib chiqaradigan markazi) ko'mir tashimoq; ekvivalenti: *elakda suv tashimoq; daryoga suv tashimoq, foydasiz ish bilan shug'ullanmoq*).

Inglizlarda suv, orol va o'rmon bo'lgani uchun (kema, qayiq, dengiz, daryo, ko'l va undagi baliqlar nomi; o'rmondagi rezavorlar, qo'ziqorinlar nomi) o'zbek tiliga nisbatan shu mavzuga tegishli so'zlar ko'p uchraydi. O'zbek tilida esa aksincha, milliy madaniyatimizga xos bo'lgan quyidagi bir qator misollarni keltirish mumkin: *tarvuzi qo'ltig'idan tushdi, gap desa qop-qop, ish desa Samarqanddan top, tentakka To'ytepa nima, Qo'qon manzirat, Marg'ilon atlas, Quva uzumi, Xorazm gurvagi, ijjon, yumurta barak, tandir go'sht, go'ja, qimiz, qimron, ayron, handalak, novvot, mosh* va h.k.

Madaniyatlardagi farqlar, fikrlarning turlicha ifodalanishi, siyosiy tuzumdagi farq, geografik joylashish, aholining etnik qatlamlari, bayramlar, urf-odatlar, marosimlar, taomlar, ta'lim tizimi, flora va fauna va shu kabilar mamlakatshunoslik hamda lingvomamlakatshunoslikka oid matnlarda ko'zga yaqqol tashlanadi.

Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada transformatsiyalarni qo'llashning bir qator ekstralingvistik omillari mavjud bo'lib, ularni ikki til sohiblarining turli madaniyatlarga mansubligida, ikki xalqning turli geografik mintaqada istiqomat qilishida, olamni idrok etishdagi turlicha qarashlarga ega ekanligida, ingliz xalqining urf-odat, marosim va an'analari, shuningdek, turmush tarzini ifodalovchi lisoniy birliklarning o'zbek tili lug'at tarkibiga mos kelish yoki kelmasligida ko'rish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada transformatsiyalarning qo'llanish tahlillari”** deb nomlangan uchinchi bobida ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada tinish belgilarining roli hamda fonetik,

grammatik, leksik hamda lingvokulturologik transformatsiyalarining qo‘llanishi tahlilga tortilgan.

Tinish belgilarining tarjimadagi ahamiyati borasida tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmaganligi, bugungi kunda amaliy tarjimada punktuasion o‘zgarishlar va ularning ma’noga tasir qilish holatlari yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Asliyat matnida:

“Thus, the story here presented will be told by more than one pen, as the story of an offence against the laws is told in Court by more than one witness – with the same object, in both cases, to present the truth always in its most direct and most intelligible aspect; and no trace the course of one complete series of events, by making the persons who have been most closely connected with them, at each successive stage, relate their own experience, word for word” (Wilkie Collins Woman in White, 1978: 33).

Xat boshining tarjimasida tinish belgilar quyidagicha qo‘llangan:

“Xullas, jinoyat tafsiloti sud hay’ati oldida qonunan bir necha guvoh ko‘rsatmalari asosida birin-ketin oydinlashganidek, e’tiboringizga havola etilayotgan voqea bir emas, bir necha shaxs qalamiga mansubdir. Ikkala holda ham ko‘zda tutilgan yagona maqsad – haqiqatni hamisha bevosita rad etib bo‘lmaydigan dallilar asosida yuzaga chiqarish; bularga aloqador shaxslarning har birining so‘zini navbati bilan batafsil eshitib, tugal voqealar silsilasini kuzatib borishdir”(Vilki Kollin “Oq kiyingan ayol”, 2010:7).

Tinish belgilari transformatsiyalarini tarjimada qo‘llanishining sifat va miqdor jihatidan tahlilini jadvalga solib, ulardagi o‘xshash va farq qiluvchi jihatlarini ko‘rib chiqamiz (1.1-jadvalga qarang):

1-jadval

Asliyat va tarjima tillarida tinish belgilarining aks etishi

Tinish belgilari		Nuqta	Vergul	Nuqtali vergul	Tire
Asliyatta		1 ta	8 ta	1 ta	1 ta
Tarjimada		2 ta	4 ta	1 ta	1 ta

Ingliz va o‘zbek tilidan tinish belgilarini qo‘llashda farq seziladi, tinish belgilarining ko‘p qo‘llanadigan va kam qo‘llanadigan turi mavjudligidan dalolat beradi. Funktsional jihatdan tinish belgilarini qo‘llanishida ham farq mavjudligini ko‘rish mumkin. Ingliz tilidagi ikki nuqtali gaplar o‘zbek tiliga darak gap sifatida tarjima qilingaligi bois o‘zbek tilida nuqtali vergul saqlanmagan. Ikkinchidan, tarjimada qo‘llangan transformatsiyalar tinish belgilarini qo‘llashga ham bevosita ta’sir etgan. Uchinchidan, ingliz tilidagi tinish belgilarini qo‘llash normalari o‘zbek tilida tinish belgilarini qo‘llash normasiga doim ham to‘g‘ri kelavermasligi isbotlagan. To‘rtinchidan, tinish belgilarining tarjimadagi transformatsiyalari ham aniq kuzatiladi. Va, nihoyat, tinish belgilarining transformatsiyasi tilning strukturasi, tuzilish jihatiga aloqador bo‘lgani uchun grammatik

transformatsiyalardan keyin yuz beradigan transformatsiyalar sirasiga kiradi degan fikrni ilgari surish imkonini beradi.

Fonetik transformatsiya deganda biz tarjimada qo‘llanadigan transkripsiya va transliteratsiyani tushunamiz. Transkripsiya va transliteratsiya atoqli otlar (ismlar), geografik nomlar, tashkilot, idora, muassasa nomlari hamda kema, mehmonxona nomlarini transkripsiya qilish yoki transliteratsiya qilish, ya’ni yuqorida tilga olingan nomlardagi tovushlarni tarjima tilida mos tovush yoki harflar bilan berishni nazarda tutadi.

Ingliz tilidagi *Isaac* atoqli oti o‘zbek tiliga faqat *Isaak* emas, kontekstga qarab, agar u Amerika fantast yozuvchisi bo‘lsa – *Ayzek*, diniy kontekstda esa – *Ishoq* deb transliteratsiya qilinadi.

O‘zbek ismlari yoki atoqli otlarini tarjimada amaliy transkripsiya qilishda muammoga sabab bo‘ladigan harflar sirasiga yuqorida aytib o‘tganimizdek q, g‘ harflari kiradi.

O‘zbek tilidagi “q” harfi va ayni paytda tovushi ingliz tiliga “k” va “q” harflari bilan beriladi. Hozir zamondagi o‘zbek atoqli otlari [k] harfi bilan transliteratsiya qilinadi: *Quadrat* – *Kudrat*; geografik (qit’a, daryo, dengiz, shahar) nomlarida *Samarqand* – *Samarkand*. E’tibor bering XIV – XVIII asrda turkiy nomlarda (arab tili ta’sirida) “q” harfi ingliz tiliga “q” harfi bilan, masalan: Samarqand, *Quadrat* tarzida transliteratsiya qilingan. O‘zbek tilidagi “q” harfining ingliz tilidagi ikkinchi shakli so‘zning tarixiy ekanligidan va ayni ism yoki shahar nomi tarjima matnida ancha avval tarjima qilingandan dalolat beradi. Shu paytgacha an’anaviy shakliga ega bo‘lgan geografik nomlarni tilga olib o‘tishimiz mumkin. Bular, masalan, *Iraq*, *Iraqi arab geografik nomlarini* aytish mumkin.

Xuddi shu fikrni o‘zbek tilidagi “g” harfining transliteratsiyasi haqida ham aytish mumkin. O‘zbek tilidagi “g” harfi ingliz tiliga “gh” harf birikmasi yordamida beriladi, biroq so‘z boshidagi “g” harfi ingliz tilida “g” harfi bilan berilishi o‘zbek tarjima amalyotida an’anaga aylangan. Tarkibida “g” harfi bo‘lgan barcha musulmon atoqli otlari ingliz tiliga “gh” bilan beriladi. Masalan: *Ulughbek*, *Samigh*, *Maghrur*.
